

ISLOMDA TA'LIMY VA TARBIYAVIY MASALALARNING DINIY JIHATDAN YORITILISHI

Kimsanboyeva Jumagul Mo'ydinjon qizi

Xonobod shahar maktabgacha va maktab ta'lim bo'limiga qarashli 6-sonli maktab psixologi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi va izohiga to'xtalib o'tilgan. Tarbiyaviy fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom dini, vijdon erkinligi, e'tiqod, ibodat, taqvo, din, musulmon, ustoz, ota-ona, tarbiya....

Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o'rganishga, o'zligimizni anglab yetishga imkoniyat yaratildi. Ayniqsa, muqaddas dinimiz - Islom dinining qayta tirilishi, uning insoniyat uchun ma'rifat keltiradigan din ekanligini anglab yetayotganligimiz xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida tub burilish hisoblanadi.

Ma'lumki, inson barcha yaratilganlar orasida ajib va latif bir tabiat bilan ajratib turadi. Bu tabiatda insonning turli-tuman mayllari, orzulari maydonga kelgan. Masalan, inson eng yaxshi narsalarni istaydi, eng go'zal narsalarga moyillik bildiradi, ziynatli narsalarni orzu etadi, insoniyatga xos sharaf bilan yashamoqqa intiladi. Ana shunday sharaf Islom dinida - xushmuomalalik, shirinso'zlik, ochiq chehralik, to'g'riso'zlik, muloyimlik, xushzabonlik, shirinsuxanlik kabi qator axloqiy tushunchalar bilan belgilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qur'oni Karim oyatlarida, Hadisi Sharifda bayon etilgan g'oyalar insoniyat tafakkuri va faoliyatidan ayri holda emas. Ayniqsa, Islom inonbalarida insonlardagi muomala madaniyati yaxshilik, burch, adolat, imon singari odob va axloq tushunchalari bilan uyg'un holda olib qaratadi. Shuningdek, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro muomalada go'zallikka intilish masalalariga Islom dini juda katta e'tibor qaratadi. Bu borada Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan maria bu hadis tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga molik: "Bir odam Rasululloh salollohu alayhi vassallamning huzurlariga kelib: "Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?"-deb so'rganida Payg'ambarimiz (s.a.v.) uch martasida ham «Onang!», so'ngra esa «Otang!»-deb javob beradilar. Ota-onani haqorat qilish, ularga yomon muomalada bo'lishni «odam qiladigan gunohi azimlardan biri» deb aytadilar. Ko'rinib turibdiki, Islomda chiroyli muomalaga, eng avvalo, ota-onalar haqlidir. Shuni ta'kidlash lozimki, Islomda tarbiya masalasiga e'tibor ta'lim masalalariga nisbatan keng qamrovliroq va ustuvorroqdir. Chunki tarbiya bolani uyda, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan

ish yuritib, jismini, nafsin o'ziga bo'ysindirishdek og'ir ishni yo'lga qo'yadi. Zero, inson ko'rib, eshitib, bilib, o'rganib tarbiyalanadi. Shu bilan birga, Ollahning haqqi - namoz, ro'za, zakot, haj kabi ibodatlarni ado etishi barobarida atrofdagilarni shirinso'zlikka, xushmuomalaga chaqirib boshqalarga ibrat bo'lishi mo'minlikning muhim xususiyatlaridan sanaladi. Ana shunday muomalalardan biri - shirinso'zlikdir. «Farzand ne'matining shukri uning go'zal tarbiyasidir» degan tamoyilga asoslangan Islom nazariyasi har bir tug'ilgan chaqaloq to tili chiqib, dilidagini gapira olguncha Islom tabiati bilan tug'ilishini, biroq ota-onalar farzandini g'ayridin yoki iymonsiz qilib qo'yishini uqtiradi. Bundan anglanadiki, bolalar ota-onalar tomonidan qanday yo'lga solinsa shu yo'lga qarab ketishligi ma'lum bo'ladi. Demak, ota-ona farzandni tarbiya qilgan ekan, uning muomalasini to'g'ri yo'lga solishi ham ularning yuksak burchlaridan hisoblanadi. Bu borada Qur'onda ba'zi toifa odamlar boshqalarga nisbatan ezgulik qilinishiga haqli ekanligi uqtiriladi. Bu toifalarning avvalida esa ota-ona qo'yiladi. Islom dinida shirinso'zlik ulug'lanadi, yolg'onchilik esa unga to'siq bo'ladigan illat hisoblanadi, yolg'on so'zlovchilar munofiq deb ataladi. Yolg'on so'zlash Islom dinida muomala madaniyatiga zid holat sanaladi. Chunki odamlar har doim ham aldanavermaydilar, bir-ikki marta muomala-muloqotdan so'ng sezgir odam birodarining yolg'on yoki rost so'zlayotganligini bilib oladi. Aytish mumkinki, Islom dinida ibodatning mohiyati ham yaxshiso'zlik va yaxshilik e'tiqodlariga qaratilgan. Til yaxshi-yomon gaplarni so'zlaydi, agar qalb shahvat va g'afolat bilan to'lgan bo'lsa, buni baxtsizlik alomati, deb bilish lozim. Chun ki ibodatdan ko'zlangan maqsad-yomonlikdan xoli bo'lish. Bu esa o'zini til va so'z orqali namoyon etadi. Islom manbalarida ushbu masalaga tegishli bir rivoyat keltiriladi. Ya'ni, bir kuni bir yaxshi kishi ko'chadan o'tib borayotganida bir necha hayosiz kishilar orqasidan yomon so'zlar ila so'kib qoldilar. Bu kishi ularning so'zini eshitadi va qo'lini ko'tarib: «Yo Rab, bu nodonlarga o'zing aql bergil va to'g'ri yo'lga solg'il!»-deb duo qiladi. Bu holdan xabardor bir kishi so'raydiki,

«Nima uchun siz ul kishilarning haqqig'a yaxshi duo qildingiz?»- deb. U kishi: esa «Ey birodar, har kim o'zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig' bor ekan, oni berishdi. deb aytadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo'lsak. Islom dini insonlarni shirinso'z bo'lishga chaqirishi bejiz emas. Zero, Qur'onda «Bandalarimga aytgin, ular eng go'zal bo'lgan narsani aytsinlar. Albatta, shayton oralarini buzib turadi» (Al Isro surasi, 53 oyat). Ollah mana shu oyatda musulmonlarni o'zaro suhbatlarida, gap-so'zlarida shirinso'z bo'lishga buyuradi. Agar ular buyruqqa itoat etmay, yomon so'zlarni ixtiyor qilsalar, albatta, shayton oralarini buzadi va natijada yomonlik va dushmanlik sodir bo'ladi. Qur'onning Baqara surasi, 83-oyatida esa Ollah aytadiki, «Va odamlarga yaxshi gaplar ayting» deydi. Bundan tashqari, Ollah taolo kishilarni huda-behuda baqiraverishlarini inkor etadi, aksincha, ularni past ovoz bilan so'zlashga

undaydi. Shirinso‘zlikning asosiy sharti ham shuni taqazo qiladi. Zero, garchi chiroyli maqtov bo‘lsin, u baqirib aytilsa, xunuk so‘zga aylanadi. Islom ovozini baralla qo‘yib baqirib-chaqirib so‘zlashni esa, eshakning hangrashiga o‘hshatadi. Ollah kishilar bilan so‘zlashayotganda, muomala qilayotganda ochiq yuzli bo‘lishni buyuradi va qo‘pollikdan qaytaradi.

Biz yuqoridagi fikrlarni o‘qir ekanmiz, ushbu tarbiyaviy ilmlarni amaliyotda qo‘llaganimizda yosh avlod ongiga singdira olganimizda yoshlarimiz ma‘nan yetuk, barkamol, komil, shaxs bo‘lib voyaga yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
2. . A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” Toshkent. 2002.
3. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma‘rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
4. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 709 www.ares.uz
5. Po‘latov, Sh.N., Tarbiyaviy o‘gitlar. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.